


## TIJORAT BANKLARIDA O‘Z KAPITALI TOG‘RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Ibragimova Nodira

Tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mazmunini to‘liq anglab etish va uning amaliyotdagi ahamiyatini tushunish bank kapitalini samarali boshqarishda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida, aynan, tijorat banklari kapitalini samarali boshqarilishi va bank kapitalining etarligini ta‘minlamay turib mijozlarning bank tizimiga bo‘lgan ishonchini qozonish mushkul vazifa ekanligi yana bir bor o‘z tasdiq‘ini topdi.

Bank sarmoyasi Bazel andozadari talablariga ko‘ra “Asosiy”(I darajali) va “qo‘shimcha” (II darajali) sarmoyadan tashkil topadi. 1988 yilda Xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan bank kapitali etarligigiga doir kelishuv (Bazel I) ishlab chiqildi va unda kapital etarligigini hisoblash maqsadida regulyativ kapital (umumiy kapital) tushunchasi amaliyotga joriy qilindi. Regulyativ kapital asosiy va qo‘shimcha kapitaldan tashkil topib, bank faoliyatini boshqarish va iqtisodiy me‘yorlarning hisob-kitobini o‘tkazish maqsadida hisoblash yo‘li bilan aniqlanadigan bank kapitalidir.

Bazel andozalariga ko‘ra asosiy kapital elementlari quyidagi rasmda keltirilgan.




**1-rasm. Bazel andozalariga ko‘ra asosiy kapital elementlari**

Manba: SH.Z.Abdullayeva, A.A.Omonov. *Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish*. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006. 122 b.

Xorijiy bank amaliyotida O‘zbekiston bank amaliyotidan farqli ravishda banklarda audit tekshiruvini o‘tkazilib, audit xulosasi tasdiqlangunga qadar joriy yilning foydasi asosiy kapital tarkibiga kiritiladi. Audit xulosasidan keyin esa faqat taqsimlanmagan foyda kiritiladi.

Hozirgi vaqtda dunyoning 100 dan ortiq mamlakatida tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirishda va uning etarlilik darajasini belgilashda xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan andozalardan asos sifatida foydalanilmoqda.

Xalqaro Bazel andozalari bo‘yicha banklarning qo‘shimcha kapitali tarkibi asosiy elementlari quyidagi chizmada berilgan.



**2-rasm. Bazel andozalari bo‘yicha banklarning qo‘shimcha kapitali tarkibi asosiy elementlari**

Manba: SH.Z.Abdullayeva, A.A.Omonov. *Tijorat banklari kapitali va uni boshkarish*. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006. 122 b.

O‘zbekiston tijorat banklarining birinchi darajali kapitali tarkibiga xalqaro Bazel andozalaridan farqli o‘laroq, bankning ustav kapitalidagi valyuta qismiga teng bo‘lgan valyuta aktivlarini qayta baholanish hisobiga tashkil etilgan devalvatsiya zaxirasi alohida manba sifatida e‘tirof etiladi. Shuningdek, tijorat banklarining joriy yildagi sof foydasi ikkinchi darajali kapitali tarkibiga kiritilgan.

Maxsus zahiralar bank balansining kontr-aktiv hisob varaqasida aks ettirilib bank xarajatlari hisobidan shakllantiriladi. Bazel qo‘mitasining andozalariga ko‘ra aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash zahirasi riskka tortilgan jami aktivlar summasining 1,25 foizga teng miqdorini II darajali bank kapitali tarkibiga kiritiladi. Demak, muallifning maxsus zahiralarini 100 foiz bank kapitali tarkibiga kiritmasligi maqsadga muvofiq emas.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

7. Abdurahmonov, O. (2019) Tijorat banklarida kapital boshqaruvi va moliyaviy risklarni minimallashtirish. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
8. Yusupov, I. (2020) O'z kapitali hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish: O'zbekiston amaliyoti. Toshkent: O'zbekiston Bank Markazi.
9. Nazarov, R. (2018) Bank kapitalini boshqarish: nazariy va amaliy asoslar. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
10. Jalilov, K. (2019) O'zbekistonda tijorat banklarining kapital yetarliligini ta'minlash usullari. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya ilmiy jurnali.
11. Ergashev, D. (2021) Tijorat banklarining kapital hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish yo'llari. Qarshi: Qarshi Davlat Universiteti.
12. Rahmonov, N. (2020) Tijorat banklarida kapitalning risklarga ta'siri va boshqarish usullari. Toshkent: O'zbekiston Markaziy Banki nashriyoti.